



RAQAMLAR:

- Qurilish-montaj ishlari – 1666,3 mlrd.so`m
- Yirik pudrat tashkilotlarining ulushi – 31,5 foiz
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar – 37,0 foiz
- Qurilishda norasmiy sektor ulishi – 31,5 foiz

Navoiy viloyat statistika boshqarmasi Investisiya va qurilish statistikasi

2018 yil yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlari hajmi

Joriy yilning yanvar-noyabr oylari davomida Viloyatda 1666,3 mlrd. so`mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o`sish sur`ati o`tgan yilning mos davriga nisbatan 120,6 foizni tashkil etdi va 2017 yil mos davriga nisbatan 16,4% (foiz) punkitga oshdi.


Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 524,6 mlrd. so`mni yoki 201,9 foizni tashkil qilib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 95,8 foizli punktga oshdi.

Mos ravishda, kichik korxona va mikrofirmalari 616,2 mlrd.so`m yoki 101,6 % ni hamda norasmiy sektor 525,4 mlrd.so`m yo`ki 99,7% ni tashkil etdi.


Ayrim tuman(shahar)larda o`tgan yilning mos davriga nisbatan pudrat tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmi oshganligi kuzatildi.

Shu jumladan, Navoiy shahrida qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 17,2 mlrd.so`mni, o`sish sur`ati 184,0 foizni tashkil etdi.

Xususan, yirik qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining yuqori darajada o`sish sur`ati Zarafshon shahrida– 404,0 mlrd. so`mni yoki 285,0% ni mos ravishda, Karmana tumanida–22,3 mlrd. so`m yoki 70,8% ni, Qiziltepa tumanida–21,6 mlrd. so`m yoki 99,5% ni tashkil etdi



Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmining 2018 yil yanvar- noyadr oylari uchun o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan% da)



2018 yilning yanvar-noyabr oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmi quyidagicha ifodalanadi:

Nomi	Jami		Shu jumladan	
			Hududiy qurilish-pudrat, tashkilotlari	
	Mlrd. sum	O'sish sur'ati, foizda	Mlrd. sum	O'sish sur'ati, foizda
Navoiy viloyati	1666,3	120,6	471,1	230,5
Navoiy sh.	309,9	107,0	17,2	184,0
Zarafshon sh.	445,5	243,9	404,0	285,0
<i>tumanlar</i>				
Karmana	218,6	115,9	22,3	70,8
Konimex	25,9	139,9	-	-
Qiziltepa	246,1	98,8	21,6	99,3
Navbahor	105,0	79,5	-	-
Nurota	95,6	87,8	-	-
Tomdi	2,4	70,8		-
Uchquduq	23,5	125,1	-	-
Xatirchi	193,8	96,4	6,0	-

Hududlar kesimida qurilish ishlaringin eng ko'p qismi viloyatning Zarafshon shahrida bajarilgan bo'lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlaringin 26,7% ni tashkil etadi, Navoiy shahrida bajarilgan qurilish ishlari esa 18,6% ni, Qiziltepa tumanida 14,8%ni, Xatirchi tumanida 11,6%ni va Karmana tumanlarida 13,1 % ni tashkil etdi.

Viloyat bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo'yicha past ko'rsatkichlar: Tomdi tumanida bu ko'rsatkich eng past 0,1%ni tashkil etdi.

Shuningdek, Uchquduq va Konimex tumanlarida ushbu ko'rsatkich mos ravishda 1,4% va 1,6% ni tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Katta hajmdagi amalga oshirilayotga qurilish ishlariiga – NKMK, "ZARAFSHON QURULISH BOSHQARMASI" tomonidan amalga oshirilib kelinayotgan "Amudaryo-Zarafshon" suv quvurining uchinchi liniyasini nasos stantsiyalarini rekonstruksiya qilish, "Ko'kpatas" va "Daugiztau" konlarini qazib olish texnologiyasini takomillashtirish "Aumindzo-Amantay" konlarida oltinma`danli birikmalarini qazib olish va qayta ishslash hisobidan qurish kabi yirik loyihalarni misol keltirib o'tish mumkin.

2018 yil yanvar-noyabr oylari qurilish ishlari hajmining iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha tarkibi

**1442,4
mlrd.so`m**

- Turar joy va noturar joy bino va inshoatlarni barpo qilish bo`yicha qurilish ishlari**

**121,6
mlrd.so`m**

- Fuqarolik qurilishi ob`ektlarini qurish bo`yicha qurilish ishlari**

**92,6
mlrd.so`m**


- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari**

Mulkchilik shakli

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1200,0 mlrd. so`mlik qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, jami qurilish ishlari hajmining 72,0 foizini tashkil qildi va ushbu ko`satkich o`tgan yilning mos davriga nisbatan 12,7 foizli punktiga kamaydi.

Joriy davrda Zarafshon shahrilda jami qurilish ishlari hajmida nodavlat sektorining ulushi 9,3 foizni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 12,9 foizga kamaydi. Karmana tumani bo`yicha jami qurilish ishlari hajmida nodavlat sektorining ulushi 89,8 foizni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 1,0 foizga oshdi, mos ravishda bu ko`satkich Xatirchi va Qiziltepa tumanida 100,0 foizni tashkil qildi.

Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 466,3 mlrd.so`mlik qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, jami qurilish ishlari hajmining 28,0 foizini tashkil qildi va ushbu ko`satkich o`tgan yilning mos davriga nisbatan 12,7 foizli punktiga oshdi. Zarafshon shahrilda jami qurilish ishlari hajmida davlat sektorining ulushi 90,7 foizni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 12,9 foizga oshdi.



O`zbekiston Pespublikasi Prezidentining 2016 yilning 22 noyabirdagi «2017-2021 yillarda shaharlarda arzon ko`p qavatli uylarni qurish va rekonstruksiya qilish Dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to`g'risida»gi PQ-2660 sonli qaroriga asosan viloyatda 2019 yil uchun mazkur namunali uylar bo`yicha qurilish ishlari boshlab yuborilgan.